

**BOBUR NOMIDAGI ANDIJON VILOYAT AXBOROT – KUTUBXONA
MARKAZI**

AXBOROT – BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

*Dilbar Ikromova tavalludining
75 yilligiga*

“O`ZBEK DRAMASINING SOTTISI”

Esdalik



ANDIJON 2022

Kirish

Umr eng - oliy ne'mat. Umr yo'llarini har kim har hil bosib o'tadi. Shunday insonlar borki, bir bor berilgan aziz umrni san'at, el xizmati va ravnaqi yo'lida sarflaydi. Aktyorlar ham san'atsevar xalqimizning doimiy ardog'ida bo'lgan insonlardir. O'zbekiston Milliy akademik teatri aktrisasi Dilbar Ikromova ham halqimizning sevimli aktrisalaridan biri edi.

Teatr vazifasi aniq. U hoh tragediya, hoh komediya, hoh drama bo'lsin, insonni tarbiyalaydi. Qaysi spektaklni olmag, unda tomoshabinga biron narsa aytilishiga guvoh bo'lasiz. Teatr yoki kino san'ati bo'ladimi, uning asosiy vazifasi – o'rgatish, insonlar turmush tarzi va hayotiga ko'zgu tutishdir.

Aktyorlik – juda murakkab kasb. Har bir aktyorning o'z olami, o'ziga xos ishlash jarayoni bo'ladi.

Aslida “Kelinlar qo'zg'olonida” gi Sotti obrazi bilan xalqimiz yuragiga kirib borgan, keyinchalik uning mehrini qozongan Dilbar Ikromovaning har bir ijrosi tomoshabin qalbidan o'rin olgan. O'zi bilan yaxshi kayfiyat olib kiruvchi o'zbek aktrisasi yaratgan obrazlari yorqinligi bilan ajralib turardi. Teatr va kino olamida o'z o'rnini topgan aktrisa faoliyati davomida barakali ijod qildi. U “Kelinlar qo'zg'olonida” gi Sottisi, “Chimildiq” spektakli va badiiy filmidagi momo, “O'zbekcha raqs” dagi qaynona, “Yolg'iz yodgorimda”gi ona obrazlari bilan tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egalladi.

Ijodkor yoshmi, qarimi, doim orzu bilan yashaydi. Dilbar Ikromova hamma rollariga borini berib o'ynagan aktrisa edi. Chunki bu uning hayoti edi.

Dilbar Ikromova tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tuzilgan ushbu bibliografik qo'llanma aktrisa ijodini qadrlagan san'atsevar insonlarga mo'ljallangan. O'z rollari orqali xonadonlarimizga kirib borgan, katta yu kichik birdek taniydigan aktrisa bugun oramizda yo'q.

SAN'ATGA QADAM

O'z yaratgan obrazlari orqali tomoshabinga aytar so'zini yetkaza olgan aktrisa 1947 yili 17 iyulda Toshkent viloyatining Bekobod shahrida tug'ilgan. Uning oilasida san'atkorlar bo'lmagan, ammo san'atni yaxshi ko'rishardi. Onasi doira chalishni qoyillatardi. Dilbarning o'zi esa raqs tushishni yaxshi ko'rgan.

Dilbar Ikromovaning otasi Ilhombek O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan agronom, onasi Jamilaxon uy bekasi bo'lgan. Oilasida sakkiz farzand bo'lib, Dilbar Ikromova ikki o'g'il, olti qizning uchinchi bo'lgan.

Dilbar o'rta maktabni bitirish arafasida yaqinlarga san'atkor bo'lish istagini ma'lum qiladi. O'shandayoq u hayotda mashaqqatli yo'l tanlaganini anglagan bo'lsa, ajabmas. Chunki o'tgan asrning 70-yillarida qiz bolaning san'at sohasini ixtiyor qilishi nafaqat oilasiga yaqinlariga ham xush kelmasdi. Onasining o'zi ham san'at shinavandasi bo'lsada, negadir Dilbarga qarshilik ko'rsatgan. Ammo Dilbar keskin qarshiliklarga qaramay, N. Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik instituti, hozirgi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining drama va kino aktyorligi yo'nalishiga o'qishga kirdi.

– Yoshligimda tortinchoq, bir chetda jimgina o'tiradigan qizaloq edim, – degan edi aktrisa suhbatlardan birida: **Onam sendan aktrisa chiqmaydi, qo'y, bu orzuingni, degan.** Otam esa meni qo'llash bilan birga monolog o'qib, turli asarlardan parcha aytib, biz farzandlarini hayratga solardi...

Otamga onam institutga ruxsat bermaganini aytgandimda, “Hech kimga indamay, hujjatlaringni topshirib kelaver”, deya meni ruhan qo'llab-quvvatlagan. Imtihonda hay'at-a'zolarining birinchi savoli esa: **“Siz maktabni bitirganmisiz? 5-6 sinf o'quvchisiga o'xshar ekansiz”, deb kulishgandi.** Keyin “Qaysi asardan parcha o'qib berasiz?”, deyishganida “Boy ila xizmatchi”dagi Sifat buvini”, desam yana kulgi ko'tarilgan. Mahoratli ijro etib, imtihondan muvaffaqiyatli o'tganman. O'qishni bitirib, teatrda ishlay boshlaganimni eshitgan qo'ni-qo'shni, tanish-bilish avvaliga ishonmagan. **“Yo'g'-e, bor-yo'qligi bilinmaydigan qizdan qanday artist chiqadi?”.**

Birinchi urinishdayoq oliygohda o'qish imkoniyatini qo'lga kiritgan bo'lsa ham u onasiga bu haqida anchagacha indamagan. Keyinchalik dadasi yotig'i bilan tushuntirgan.

“AYLANIB KETAY DILBARIM!”

Dilbar Ikromova 1970-yili Toshkent teatr va rassomlik san'ati insitutini tugatgan va shu yildan hozirgi O'zbek milliy drama teatrida ishlaydi. U san'atda xalq e'tirofiga sazovor bo'lib, o'z yaqinlarining ishonchi hamda mehrini qozonish uchun tinmay o'qib izlandi.

Dilbar Ikromova ijodining ilk kunlaridan sahnaga hurmat va ijod mas'uliyatini o'rgandi hamda bir umr burchga sadoqatni saqlab qoldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yosh aktrisa ijodiy muvaffaqiyati bilan teatr jamoasining e'tiborini qozondi. Uning ilk obrazi “Oy tutilgan tunda” (Mustay Karim) spektaklidagi Zubarjat obrazidir. Bu yerda sahnalashtirilgan qator asarlarda mukammal obrazlar yaratib, elga goh “Nigora”, goh “Dilorom”, goh “Risolat” nomlari bilan tanildi.

Aktrisa o'z ijrosida mazkur davr jamiyatda xotin-qizlarga bo'lgan sotsial voqelik, munosabatga urg'u berdi. Said Ahmadning “Kelinlar qo'zg'oloni” komediyasini rejissyor B. Yo'ldoshev sahnalashtirganida aktrisaga Nigora obrazi topshiriladi. Rejissyor ushbu obraz orqali aktrisaning o'ziga ma'lum bo'lmagan ijodiy qirrasini kashf etdi.

U Ozoda (Imon”), Dilorom (“Oltin devor”), Feokla Ivanovna (“Uylanish”), Roller (“Qaroqchilar”), Momo (“Chimildiq”) kabi rollari bilan shuhrat qozondi. Uning ijrosi hayotiy haqiqat va samimiyat namunasi bo'lib, dialoglarni juda ishonarli olib borish, rolning eng mayda ko'rinishlariga ham noziklik bilan yondashish, mimik harakatlardan ustalik bilan foydalanish aktirisaning ijodiga xos. Filmlarda ham suratga tushgan: Sotti (“Kelinlar qo'zg'oloni”), Telba ayol (“Qaldirg'och”), Ona (“Yolg'iz yodgorim”), Ona (“Chayongul”), qo'shni xotin (“Sharif va Ma'rif”), Momo (“Chimildiq”) va boshqa rollarni ijro etgan.



Muxlislariga goh Nigora, goh Sotti (“Kelinlar qo‘zg‘oloni”) bo‘lib zavq ulashgan va yo Momo (“Chimildiq”) timsolida hayotiy saboq bergan, bir qaracak, munisu mushfiq, ammo bardoshi tog‘dek zalvorli ona (“O‘zbekcha raqs”, “Qirmizi olma”) siymosida tomoshabinni hayratga solgan .

Dilbar Ikromovaga kino olamiga eshik ochgan roli “Kelinlar qo‘zg‘oloni” obrazidagi Sotti obrazi edi.

Eduard Akopov “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi asosida kinosenariy yozdi. Sottining hatti-harakatlari - yu, gap so‘zlari tufayli mazkur kartina millionlarni tashkil qilishi shubhasizdir. Uni rejissyor Melis Abzalov 1984 yili bu rolga taklif qilganida u 35 yoshda edi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tib bu rolga tasdiqlangan. O‘z



xotiralariga ko‘ra u Sotti rolini mazza qilib o‘ynagan. Filmdagi olma g‘ajib chiqishlar, cho‘michni ko‘tarib “O‘chir, o‘chir, o‘chir” deyishlar stsenariyda yo‘q edi. Bularni tasvirga olish jarayonlarida o‘zidan qo‘shib ijro etgandi. Teatrda Nigora, kinoda esa Sotti obrazida chiqqan aktrisa uchun har ikkala roli ham chin ma`noda muvaffaqiyat olib keldi. Sottini tomoshabinlar qabul qilishdi. Hozirgi kungacha millionlab tomoshabinlar uchun u “Sotti”. E‘tiborli tomoni shundaki, aktrisa yaratgan qahramonlarning aksariyatida o‘zbek ayoliga xos go‘zal fazilatlar, ibrat olsa bo‘ladigan ko‘p jihatlar mujassam. Teatr hamisha

ibrat dargohi bo'lgan. Sahnada o'ynalayotgan kechinmalar aslida hayotdan bir lavha. Farqi shuki, uni ko'rish, tinglash, his qilish, xulosa chiqarish mumkin.



Yoshlar ham, ijodkorlar ham haqiqiy san'at bilan yengil-elpi asarning farqini tushunib olishi kerak. Mahorat bilan yaratilgan spektakllar, filmlar bejiz ham yoshu-qarini birdek qiziqtirib kelayotgani yo'q. Chunki bu asarlarni o'z kasbini

qadrlagan rejissyorlar, aktyorlar sahnaga, ekranga olib chiqqan.

Ayrim aktyorlar o'zini yo teatr, yo kinoga xos, deb hisoblaydi va shunga yarasha rol tanlaydi. Dilbar Ikromova esa aksincha, qaysi rolga munosib ko'rishmasin, rejissyor ishonchini oqlashga uringan, epizodik rolni ham tomoshabinning yodidan chiqmaydigan tarzda qiyomiga yetkazgan. "Drama janrida o'ynasam, komediyani sog'inib qolaman yoki komediya bilan ko'proq mashg'ul bo'lib qolsam, jiddiyroq obrazlarni qo'msayman, – degan edi Dilbar Ikromova. – Ikkalasi aralashgan asar bo'lsa, sahnada yanayam mazza qilib "yashayman".



Dilbar Ikromova sahnada sho'x-shaddod, "o'zini xafa qildirib qo'ymaydigan", biroq aslida hayotda esa o'ta kamtar, sodda va samimiy inson bo'lgan.

– O'zim ham biror rolni qoyil qildim, deyolmayman-u, ammo yaratgan obrazlaringiz orasida qaysi biri o'zingizga ko'proq ma'qul, degan savolga

doim “O‘zbekcha raqs” dagi Ona, deyman. O‘zbekiston xalq artisti Turg‘un Azizov sahnalashtirgan ushbu asar ssenariysini o‘qiganimdayoq shu obrazga bog‘lanib qoldim. Ustozimiz Turg‘un aka “Dilbar, bu rolda sendan boshqani tasavvur qilolmadim”, deya ishonch bildirgani menga qo‘shimcha kuch bag‘ishladi. Bir olam orzu-umid bilan yashayotgan ona yolg‘iz o‘g‘li rus qizni uyga yetaklab kelgach, har qancha og‘ir bo‘lmasin, ajnabiy kelinni qabul qiladi va ko‘p qiyinchiliklardan so‘ng uni haqiqiy o‘zbek ayoliga aylantirishga erishadi. Oddiy o‘zbek onasining oilaga, farzandga, millatga sadoqati tarannum etilgan ushbu sahna asari ko‘pchilikka ma‘qul bo‘layotganidan mamnunman.

Balki bu obrazdagi jihatlarning qaysidir tomonlarini onasidan olgandir. Chunki otasi insult bo‘lib, o‘n besh yil to‘shakka mixlanib qoladi. Mushtipar onasi biron marta ham “voy” demasdan otasiga qaragandi. Otasi 74 yoshida olamdan o‘tgan. Onasi doim “O‘zbekiston xalq artisti» unvonini olganingni ko‘rsam, armonim yo‘q edi. Keyin o‘lsam ham mayli edi” derdi. Aytganidek, **unvon olganidan bir oy o‘tib, 84 yoshida vafot etdi.**

Aktyor tabiatan sinchkov bo‘lishi lozim. U el orasiga kirganda ommani kuzatib, o‘zi uchun turli xarakterlarni kashf qilsa, obraz yaratish jarayonida ana shular qo‘l kelib, detal, xatti-harakat, qiyofa (mimika), nutq kabi holatlarni tomoshabinga tabiiy yetkaza oladi. Shu bois Sotti obrazining maqsadi va vazifasi bir bo‘lsa-da ikki aktyor obraz yaratishga turlicha yondoshadi. Dilbar Ikromova, shuningdek, mohir dublyaj aktyori sifatida ham o‘ziga xos ovoz sohibi edi.


Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan “Humo” Xalqaro teatr festivalida hamdo‘stlik mamlakatlari bilan bir qatorda Germaniya, Yaponiya, Frantsiya, Isroil teatr jamoalarining eng sara asrlari namoyish etildi. Bir so‘z yuritayotgan “Qirmizi olma” asari tanlovining yuksak mukofotiga munosib ko‘rildi.

“Qirmizi olma” Istanbul shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro festivalda ham namoyish etildi. Har ikki nufuzli tanlovning hakamlar hay‘ati tomonidan ushbu asardagi momo obrazi yuksak ehtirol etildi. Dilbar Ikromovanning serqirra ijodiy mehnati munosib taqdirlanidi.

-1996 yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist”

-2001 yilda “O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti” faxriy unvoniga sazovar bo‘ldi.

- 2014 yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan mukofatlangan.



Oilada mehribon ona va sevimli buvi bo‘lib, ularni quvonchdan porlagan ko‘zlaridan kuch oldi. Keling yana Dilbar Ikromova bilan suhbatlardan birida olingan samimiy dil so‘zlarini keltirsak:

“ Nabiramga kitob sovg‘a qilishni odat qilganman, – degan edi opa

sevinib. – **Bir gal o‘yinchoq olib borsam, “Buvijon, o‘zingiz aytgansiz-ku, eng yaxshi sovg‘a kitob, deb. Nega o‘yinchoq olib keldingiz” degan.** Juda xursand bo‘lganman. Haqiqatan, kitob – bilim, kitob – hayot. Biz talabalik davrimizda ham o‘zbek, ham dunyo adabiyotini muntazam o‘qib borardik. Hozirgi ayrim yoshlar chet el adabiyotining nodir namunalarini eshitmagan ham. Mana, endi kitobxonlik davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xudo xohlasa, bilimdon yoshlarimiz ko‘payadi...”

O‘z qahramonlaridek samimiy, sodda, ammo so‘zining yuki zalvorli bo‘lgan Dilbar Ikromova 2020-yil 25-avgust kuni koronavirusdan xastalanib, vafot etdi. Lekin sahnada va kinoda yaratgan obrazlari bir umrga san‘atdi, kinotasmalarda qoldi. Eng asosiysi esa halqimiz xotirasida, qalblarda mangu qoldi.



DILBAR IKROMOVA HAMKASBLARI XOTIRASIDA

“Ustoz Shukur Burhonov singari juda katta yurak sohibasi edi. U har bir yaratayotgan obrazini qalbdan chuqur his etib, sintez qilar va obraz dunyosi bilan yashar edi. Har bir roliga qalb qo`rini berar va kinoda ham, teatrdam ham yurakni ishlatmasdan obraz yaratmas edi. Dilbar o`z nomiga yarasha dilbar shaxs bo`lib, nafaqat teatrimizda, balki o`zbek san`atida beqiyos va betakror san`atkor edi, buni hech kim inkor etolmaydi. Undagi yurak boshqa aktrisalarda yo`q.

D. Ikromovanning o`ziga yarasha juda katta mahobatli san`ati bor edi. Ellik yildan buyon u bilan bir sahnadamiz. Afsus, hech kim kutmagan o`lim Dilbarni rihlatga olib ketdi. U mana shu qisqa vaqt ichida teatr va kinoda betakror obrazlar yaratib, xalq tili va dilidan joy ola bilgan san`atkor edi. Hayotni qarang ... aylanib ketay Dilbarim...”

O`zbekiston xalq artisti Erkin Komilov

Hayotda juda kamgap, tortinchoq va beozor ayol edi. Jurnalistlar intervyu olish uchun qo`ng`iroq qilishganida ham ko`pincha rad etardi. Lekin jussasi kichik bo`lsa-da, sahnada yuragi yonardi, juda qudratli edi. “Sizning ichingizda ikkita odam yashaydi”- derdim doim.

O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan artist Ra`no Yarasheva

ADABIYOTLAR

1. Икромова Дилбар // “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 4 - жилд. Зебуннисо – Конирил /таҳрир хайъати: М.Аминов [ва бошқ.]. – Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 114.
2. Дилбар Икромова қандай ҳаёт кечирган эди ? Хотира – азиз : [Дилбар Икромовани хотирлаб] // “ZO`R” Тасвир. – 2020. – № 30. – 3 сент. – Б. 12-13.
3. Ибрагимов, Ш. Дилбар дамларни эслаб : [Дилбар Икромова ҳаёти ва ижоди] / Ш. Ибрагимов // Тошкент ҳақиқати. – 2020. – 29 авг. – Б. 6.
4. Исажонов, М. “Ўзбекистон Соттиси хотираларидан: Мукаррама Турғунбоевага яширинча мактуб ёзганман”: [Ўзбекистон халқ артисти Дилбар Икромова ҳақида] / Миролим Исажонов // Ҳордиқ. – 2020 – 10 сент. – Б. 8.
5. Махсумова, С. “Санъаткор ўзи ҳис қилмаган кечингани томошабинга етказиб бера олмайди”: [Дилбар Икромова ҳаёти ва ижоди] / Садоқат Махсумова // Маҳалла. – 2020. – 19 – 20 март. – Б. 2.
6. Ниязова, Ҳ. Театр – кинонинг ҳамкори : [кино санъати ҳамиша театр санъатидан “энергия” олади] / Ҳафиза Ниязова // Театр. – 2012. – № 2. – Б. 21-23.
7. Ўзбекистон халқ артисти Дилбар Икромова оламдан ўтди // Ҳордиқ. – 2020. – 27 авг. – Б. 24.
8. Қодирова, С. Бир спектакл тарихи : Саид Аҳмаднинг “Келинлар кўзғолони” асари қайнона билан келин муносабатларига бағишланган /Сарвиноз Қодирова// Театр. – 2012. – № 6. – Б. 4-6.
9. Холмирзаев, Ҳ. “Айланиб кетай Дилбарим!”: [Дилбар Икромова ҳаёти ва ижоди] /Ҳайитбой Холмирзаев, Баҳром Инатуллаев // Театр. – 2020. – № 5. – Б. 11-13.

INTERNET RESURSLARI

10. Ўзбекистон Республикаси халқ артисти Дилбар Икромова ҳаёти ва ижоди ҳақида суҳбат // Кириш тартиби <https://uz.wikipedia.org/wiki/erkin>.

11. О'zbekiston xalq artisti Dilbar Ikromova tavallud topgan kun // Кириш тартиби <http://taqvim.uz/uz/event/view/757>, erkin.

О`zbek dramasiining Sottisi : esdalik / tuzuvchi B. Mamadaliyeva. – Andijon, 2022. – 21 b.